


hollarda o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar kiritilishi mumkin. Ushbu Nizomga kiritilgan o'zgartirish va (yoki) qo'shimchalar Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining umumiy yig'ilishda hozir bo'lgan aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilingan qaroriga asosan tasdiqlangandan keyin kuchga kiradi.

13.5. Agar ushbu Nizomning alohida bandlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga va/yoki Jamiyat Ustaviga zid kelgan taqdirda, ushbu bandlar o'z kuchini yo'qotadi hamda ushbu Nizomga tegishli o'zgartirishlar kiritilgunga qadar, bu bandlar orqali tartibga solinadigan masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va/yoki Jamiyat Ustavi me'yorlari qo'llaniladi.

13.6. Jamiyatning barcha oddiy aksiyalar bitta aksiyadorga tegishli bo'lsa, Jamiyatda aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni va Jamiyatning Ustavi bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo'yicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtirilishi kerak. Bunda ushbu Nizomning aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish, uni chaqirish va o'tkazish tartibini hamda muddatlarini belgilovchi qoidalari qo'llanilmaydi, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini o'tkazish muddatlariga taalluqli qoidalar bundan mustasno.

**"Kvarts" AJ**  
**Boshqaruv raisi v.v.b.**



**A.B. Xusanov**